

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Ilmiy tadqiqot bo'limi boshlig'i,

Termiz davlat universiteti DSc doktoranti

E-mail: sarvarsaid@bk.ru

Tel: +998909826095

UDK: 091.274.135

ABDULLOH IBN MUQAFFANING AXLOQIY RISOLALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada VIII asrda yashagan olim, faylasuf, kotib va adab ilmining bilimdoni Abdulloh ibn Muqaffa ilmiy merosining Sharq falsafiy tafakkur tarixidagi roli ochib berilgan. Allomaning musulmon jamiyatida siyosatnoma turkumidagi asarlarning dastlabki namunalari hisoblangan “Al-Adab al-kabir”, “Al-Adab as-sag'ir”, “Risola as-sahoba” kabi asarlari, ularda keltirilgan siyosiy etiketga oid qonun-qoidalar falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur asarlarning bugungi boshqaruv tizimidagi ahamiyati misollar orqali asoslangan.

Kalit so'zlar: Abdulloh ibn Muqaffa, falsafa, axloq, adab, siyosatnoma, sulton, din, aql, jamiyat, inson, boshqaruv odobi, do'stlik.

Саидов Сарвар Атабулло угли

Начальник научно-исследовательского отдела Международного научно-

исследовательского центра имени Имама Термизи,

докторант (DSc) Термезского государственного университета

E-mail: sarvarsaid@bk.ru

Тел.: +998909826095

НРАВСТВЕННЫЕ ТРАКТАТЫ АБДУЛЛАХ ИБН МУКАФФЫ

Аннотация. В данной статье раскрывается роль научного наследия Абдуллах ибн Мукаффы – ученого, философа, писца и знатока науки адаб, жившего в VIII веке, в истории восточной философской мысли. С философской точки зрения анализируются такие его произведения, как «Адаб аль-кабир», «Адаб ас-сагир» и «Рисалат ас-сахаба», которые считаются одними из первых образцов жанра политических наставлений

(сиясатнаме) в мусульманском обществе. В статье рассматриваются нормы и принципы политического этикета, изложенные в данных трудах, а также на конкретных примерах обосновывается их значение и актуальность в современной системе управления.

Ключевые слова: Абдуллах ибн Мукаффа, философия, нравственность, адаб, политическое наставление, султан, религия, разум, общество, человек, управленческая этика, дружба.

Saidov Sarvar Atabullo ogli

Head of the Research Department, Imam Termizi International Research Center,

DSc Doctoral student at Termez State University

E-mail: sarvarsaid@bk.ru

Phone: +998909826095

THE MORAL TREATISES OF ABDULLAH IBN MUQAFFA‘

Abstract. This article examines the role of the scholarly heritage of Abdullah ibn Muqaffa‘ – an eighth-century scholar, philosopher, secretary, and prominent authority in the science of adab – in the history of Eastern philosophical thought. From a philosophical perspective, the study analyzes his works “Adab al-kabir,” “Adab al-ṣaghir,” and “Risala as-sahaba”, which are regarded as some of the earliest examples of the siyasatnama (political advisory literature) genre in Muslim society. The principles and norms of political etiquette presented in these works are examined, and their relevance and significance for contemporary governance systems are substantiated through illustrative examples.

Keywords: Abdullah ibn Muqaffa‘, philosophy, ethics, adab, political treatise, sultan, religion, reason, society, human being, ethics of governance, friendship.

Kirish.

Sharq falsafiy tafakkur tarixida o‘zining siyosatnoma uslubidagi axloqiy asarlari bilan o‘chmas iz qoldirgan allomalardan biri Abdulloh ibn Muqaffa (724-759) hisoblanadi. Abdulloh ibn Muqaffaning hayoti va ilmiy faoliyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lgan, ushbu olim islom tarixidagi siyosiy ziddiyatlar kuchaygan,

umaviylar va abbosiylar o'rtasida xalifalik taxti uchun kurash kuchaygan bir davrda yashagan. Falsafiy jihatdan esa ushbu davrda islom falsafasida mutakallimlar va mo'taziliyya kabi oqimlar shakllanib, diniy-falsafiy masalalarda turli bahs-munozaralar kuchayib borgan. Ushbu bahs-munozaralarning kuchayishida abbosiylar davrida yunon, fors va hind sivilizatsiyasi yutuqlari, falsafiy asarlarining arab tiliga tarjima qilinishi asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Bu davrda yuksak sivilizatsiya yutuqlarini musulmon jamiyatiga integratsiya qilishda jonbozlik ko'rsatgan tarjimon va mohir faylasuflardan biri Abdulloh ibn Muqaffadir. Allomaning ilmiy faoliyati asosan falsafa, siyosat, axloq ilmlariga oid asarlarni arab tiliga tarjima qilish, mazkur sohalarga oid asarlar yozishdan iborat bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili.

Abdulloh ibn Muqaffaning falsafiy qarashlari, hayoti va ilmiy faoliyati hozirgi kunga qadar bir qator olim va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, klassik davr islom olimlaridan Soid Andalusiy, Ibn Nadim [6] kabilar o'z asarlarida Ibn Muqaffaning ilmiy-falsafiy faoliyati, tarjima ilmidagi mahoratiga alohida ahamiyat qaratganlar. Zamonaviy dunyoda esa turk olimlari Mehmet Kuyanay, Vejdi Akyuz [7], ispan tadqiqotchisi Houda el-Ayyadi, arab olimlari Abdullatif Hamza [4], Ahmad Shavqiy, fors olimlari Abbos Iqbol Ashtiyoniy [3], Muhammad G'ufroniy kabilar Abdulloh ibn Muqaffaning falsafiy ta'limoti, axloqiy asarlari borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 14-fevraldagi qarori [1] asosida Termiz shahrida tashkil etilgan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida Abdulloh ibn Muqaffaning "Al-Adab al-kabir", "Al-Adab as-sag'ir", "Al-Adab al-vajiz", "Risola as-sahoba" kabi asarlarining o'zbek tilidagi ilmiy-izohli tarjimasi nashrga tayyorlangan bo'lib, ushbu izlanishlar alloma ilmiy merosining bugungi kun axloqiy muammolarini bartaraf qilishdagi ahamiyatini ko'rsatib berishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Abdulloh ibn Muqaffaning axloqiy risolalarini falsafiy-germenevtik jihatdan tadqiq qilishga qaratilgan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohalarida qo'llaniladigan analogik tahlil, analiz, sintez kabi metod va usullaridan samarali foydalanilgan

Tahlillar va natijalar.

Abdulloh ibn Muqaffaning “Al-Adab al-kabir”, “Al-Adab as-sag‘ir”, “Al-Adab al-vajiz”, “Risola as-sahoba” kabi risolalari axloqiy pand-nasihatlarini o‘z ichiga olgan asarlar hisoblanadi. Ushbu nasihatlar mutafakkir tomonidan o‘tmish donishmandlarining hikmatli so‘zlari asosida jamlangan bo‘lib, ular qalbni poklash va tafakkurni jonlantirishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nasihatlar aniq tarzda axloqiy talablarni hamda insoniyat jamiyatiga oid qoidalarni, islom ta’limotlariga mos holda ta’kidlaydi [3].

Allomaning “Al-Adab al-kabir”, “Al-Adab as-sag‘ir” kabi asarlari ijtimoiy-axloqiy masalalarga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu ikki kitob odob-axloq va muomala masalalarini o‘z ichiga olgan hikmatlar majmuasidir. Noodatiy uslub, jumlar tarkibining murakkabligi va o‘ziga xos tuzilish bu asarlarning yuksak ahamiyatidan darak beradi. “Al-Adab as-sag‘ir” asarining muqaddimasida Ibn Muqaffa shunday yozadi: “Ushbu asarda insonlarning to‘g‘ri amallari, qalblarni mukammallashtirishga bo‘lgan intilishlari, dunyoqarashining tiniqligi va tafakkurining tetikligi to‘g‘risida nasihatlar keltirilgan. Undagi g‘oyalarda munosib xatti-harakatlar va oliyjanob ishlarni amalga oshirish yo‘llari ko‘rsatilgan” [5].

“Al-Adab al-kabir” asarining muqaddimasida esa Ibn Muqaffa shunday yozadi: “Bizning zamonimizdagi olimlarning ilmi o‘tmish olimlarning ilmidan olingan, bizning oliyhimmat, saxiy insonlardagi xayr-ehson g‘oyasi ularning hayot yo‘llaridagi faoliyatlariga ergashadi. Biz ulug‘ ajdodlarimizning qarashlarida e’tibordan chetda qoldirilgan biror narsani topa olmadik. Shundan kelib chiqib men ushbu kitobimda odamlar ehtiyoj sezadigan adabga oid hikmatlar haqida yozdim” [5].

“Al-Adab as-sag‘ir” asari ijtimoiy munosabatlar, odob-axloq qoidalari hamda ezgu amallarni bajarish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatilgan pand-nasihatlar

majmuasidir. Ibn Muqaffa aql sohiblarining e'tiborini inson tabiatidagi kamchiliklarga qaratadi, insonni ziynatlaydigan fazilatlar, o'zini olib qochishi kerak bo'lgan nuqsonlar haqida so'z yuritadi. Muallif ushbu asar orqali kitobxonning bilimini oshirib, ko'p narsalar haqida tafakkur yuritishga, ularda sabot va matonat, Allohga xush keladigan savob ishlar qilish ko'nikmalarini shakllantirishga harakat qiladi. Bu borada u shunday deb yozadi: "Din Alloh taolo tomonidan o'z bandalariga berilgan eng buyuk hadyadir". U do'stlar bilan yaxshi munosabatlarni saqlab qolish va dushmanlardan ehtiyot bo'lishni maslahat beradi. Kamchiliklardan qutulish vositasi sifatida u insonning o'z-o'zini nazorat qilishi va o'zini-o'zi tergashi lozimligini ta'kidlaydi. Ibn Muqaffa asrda bu borada shunday deb yozadi: "Oqil inson o'zi bilan o'zi bahsga kirishishi, o'zini nazorat qilishi, o'z ruhi ustidan hukm yuritishi hamda o'z xatti-harakatlarini to'g'ri baholay olishi lozim. Bu uning to'g'ri yo'lda bo'lishiga yordam beradi. Oqil inson o'zining din, axloq va muomala madaniyatidagi ayb va nuqsonlarini yaxshi bilishi hamda ularni doimo hisoblab borishi, yodda saqlashi yoki maxsus kundalikka qayd etishi kerak. Har safar qaysidir bir nuqsonlaridan xalos bo'lganda, u kundaligidagi ushbu nuqsonni o'chiradi, o'chirilgan nuqsonga nazar solganda xursand bo'ladi, isloh qilinmagan kammchiligini ko'rganida esa qayg'uga tushadi". Alloma oqil inson o'zini-o'zi kamolotga yetkazishi uchun har doim o'limni yodda saqlashi lozimligini ta'kidlaydi: "Oqil inson kechayu kunduz o'limni eslashi kerak, u o'limni zikr qilish orqali qalbini shod aylab, yomon istaklariga chek qo'yishi lozim" [5].

Asardagi bir qancha pand-nasihatlar hukmdorlar va xalifalarga mo'ljallangan bo'lib, faylasuf ularni fuqarolarga nisbatan o'z vazifalarini to'la-to'kis amalga ooshirishga, vazir va amaldorlarni to'g'ri tanlashga chaqiradi [4].

"Al-Adab al-kabir" asari esa ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda hokimiyatning mohiyati, hokimiyat va fuqarolarning o'zaro munosabatlari masalalari yoritilgan. Ikkinchi qism esa "Do'stlik munosabatlari" deb nomlanib, bu bobda fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yoritiladi. Ikkala qism ham ajoyib uslubda yozilgan. Birinchi bobda Abdulloh ibn Muqaffa hukmron qatlamning

fazilatlarini hamda ularning oddiy xalq borasida to'plagan tajribalari borasida so'z yuritadi. Hukmdorlarga mo'ljallangan pand-nasihatlar ham ikki qismdan iborat. Birinchi qismda hukmdorning shaxsiy hayoti, uning fuqarolariga qanday tarzda g'amxo'rlik qilishi masalalariga doir maslahatlar keltirilgan. Ibn Muqaffa hukmdorlarga davlat ishlari uchun ajratilgan vaqtni qisqartirmaslikni, aksincha dam olish, bekorchilik, aysh-ishrat va uyqu soatlarini kamaytirgan holda, saltanat ishlariga ko'proq vaqt ajratishni tavsiya qiladi. Shu joyda Ibn Muqaffa hukmdorga maqtovlarga havasmand bo'lmaslikni, boshqa ishonchli vositalar orqali o'z nufuzini mustahkamlashga harakat qilishni maslahat beradi. Ikkinchi qismda hokimiyat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga doir nasihatlar keltirilgan. Mutafakkir xalifaga fuqarolari bilan tez-tez muloqot qilib turishni, kimnidir mukofotlash yoki jazolash hamda boshqa masalalarda shoshilmaslikni maslahat beradi. Uning hokimiyat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid nasihatlar xushomadgo'ylikdan saqlanishga, itoatkorlikka, inson fazilatlarini yo'q qiluvchi hamda aql va dinga xilof keluvchi illatlardan saqlanishga da'vat ruhida yozilgan [6].

“Al-Adab al-kabir” asarining ikkinchi qismida ezgu xulq-atvor qoidalari hamda do'stlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning nozik qirralariga oid nasihatlar jamlangan. Ibn Muqaffa do'stlarni hayotdagi asosiy tayanch, qalb ko'zgusi sifatida ta'riflaydi, do'stlargagina qalbdagi eng sirli va yashirin o'y-xayollarni ishonish mumkinligini aytadi. Shu sababli u do'stlik munosabatlarida juda murakkab shartlarni qo'yadi, do'st tanlashda nihoyatda sinchkov bo'lish lozim deb hisoblaydi [7].

“Al-Adab al-kabir” va “Al-Adab as-sag'ir” asarlari o'z tuzilishi bilan alohida ajralib turadi. “Al-Adab as-sag'ir” asarida keltirilgan fikrlarning har biri boshqasi bilan tarkibiy yoki mantiqan bog'liq bo'lmay, balki butun matn bo'ylab yoyilib ketgan. “Al-Adab al-kabir” asarida esa qoidaga asosan fikrlar mantiqiy izchillikka tayangan holda, rivojlanib boradi.

Har ikki asarda ham fors, hind va yunon madaniyatlarining ta'siri sezilib turadi. Forsiy tafakkur ta'siri forslardan o'zlashtirilgan ko'plab hikmatlarda, fors

tilidan ko‘chirilgan nasihatlarida, Ardasher davridagi boshqaruv tizimi va boshqa Sosoniy hukmdorlar davriga taalluqli tarixiy misollarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ikkala asarda ham fors madaniyati va o‘z davridagi ijtimoiy-siyosiy hayotga ta‘sir ko‘rsatgan fors tafakkur tarzining roli aniq-ravshan sezilib turadi. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra ushbu ikki asar Sosoniylar davlatining ichki siyosati borasida bizga ma‘lumot beruvchi asosiy manbalardan hisoblanadi [8].

Ushbu asarlarning ko‘plab o‘rinlarida yunon madaniyatining ta‘siri kuchli. Xususan, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan turli hissiyotlar, insonning o‘z salomatligi va hayotini ehtiyot qilishi kabi g‘oyalar Epikur falsafasida uchraydi. Shahvoniy lazzatdan ko‘ra aqliy va axloqiy lazzatni afzal bilish haqidagi fikrlarda esa Platon va Aristotelning ta‘sirini sezish mumkin. Hind falsafasining ta‘siri asosan “Kalila va Dimna”dan olingan ko‘plab hikmatlarda namoyon bo‘ladi [9].

Ushbu asarlar axloqiylikning yuksak namunalari bo‘lib, ma‘naviy-ma‘rifiy, diniy masalalarga, ularning jamiyat hayotidagi katta ahamiyatiga, dinga nisbatan qo‘llanilishi lozim bo‘lgan hurmat-ehtirom masalalariga ham alohida e‘tibor qaratadi.

Xulosa.

Xulosa sifatida aytganda, islom falsafasining yetuk namoyandalaridan biri hisoblangan Abdulloh ibn Muqaffa o‘zining axloq ilmiga bag‘ishlangan risolalari orqali barkamol shaxsning asosiy fazilatlarini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, Sharq falsafiy tafakkur tarixidagi siyosatnoma janrida yozilgan dastlabki asarlardan hisoblangan “Al-Adab al-kabir” va “Al-Adab as-sag‘ir” risolalari orqali odil hukmdor g‘oyasi, adolatning davlat taraqqiyotidagi roli, hukmdor va xalq munosabatlarida amal qilinishi lozim bo‘lgan jihatlarga alohida e‘tibor qaratganligini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2774-sonli qarori. // Xalq so‘zi, 2017-yil, 14-fevral.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – 464 b.
3. Abbos Iqbol Ashtiyoniy. Sharhe hole Abdulloh ibn al-Muqaffa. – Tehron: Eron Milliy kutubxonasi, 1927. – 122 b.
4. Abdullatif Hamza. Ibn al-Muqaffa. – Misr: Dor al-fikr al-arabiy, 1960. – 260 b.
5. Abdulloh ibn al-Muqaffa. Al-Adab as-sag'ir va al-adab al-kabir. – Bayrut: Dor Bayrut, 1977. – 139 b.
6. Ibn Nadim. Kitob al-fihrist. – Bayrut: Dor al-ma'rifa. – 545 b.
7. Vecdi Akyüz. El-Edebu'l-kebir. İslam Siyaset Üslubu içinde. – İstanbul: Dergah Yay., 2004. – 140 s.
8. Фильштинский И.М. История арабской литературы (В— начало X века). – Москва: Наука, 1985. – 524 с.
9. Шомаксудова М. Книга «ал-Адаб ас-сагир» и «ал-Адаб ал-кабир» Ибн ал-Мукаффи как произведение «адаб»а. // Востоковедение. ТашГив, – Н. 1. – С.110-113.